

## GRUZIYA MISOLIDA “RANGLI INQILOB” RIVOJLANISH TENDENSIYASI

**Tuxtaxunov Dilshod Shakirjanovich**

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
magistraturasi tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada Gruziyada ommaviy tartibbuzarlik hodisalarini “rangli inqilob” hodisasiga o‘xshash jixatlari tahlil qilinadi. Ishning maqsadi ommaviy norozilik xulq-atvorining xususiyatlarini, asosiy omillarini, zamonaviy dunyo sharoitida “rangli inqilob” fenomenini tahlil qilishdir. Maqolada ushbu ijtimoiy hodisaning oldini olishning mumkin bo‘lgan usullari ham muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Gruziya, rossiyaparast, odamlar, asosiy kuch, davlat, parlament.

**Аннотация:** В статье анализируются аспекты событий массовых беспорядков в Грузии, схожих с феноменом «цветной революции». Целью работы является анализ характеристик, основных факторов поведения массовых протестов, феномена «цветной революции» в условиях современного мира. В статье также рассматриваются возможные пути профилактики данного социального явления.

**Ключевые слова:** грузинский, пророссийский, народ, главная власть, государство, парламент.

**Abstract:** The article analyzes aspects of the events of mass riots in Georgia similar to the phenomenon of the "color revolution". The purpose of the work is to analyze the characteristics, main factors of the behavior of mass protests, the phenomenon of the "color revolution" in the conditions of the modern world. The article also discusses possible ways to prevent this social phenomenon.

**Keywords:** Georgian, pro-Russian, people, main power, state, parliament.

Gruziya – Kavkaz orti davlatlarning g‘arbiy qismida, Qora dengizning sharqiy qirg‘og‘ida joylashgan davlat bo‘lib. Poytaxti Tbilisi; 1936 yilgacha shahar Tiflisi deb atalgan. Gruziyaning maydoni 69,7 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi. Mamlakatning iqlimi nam, qishi o‘rtacha sovuq va yozi uzoq issiq.

2021 yil ma’lumotlariga ko‘ra, aholi soni 3,7 million kishini tashkil etadi, ularning 86,8 foizi gruzinlar, 6,3 nafari ozarbayjonlar, 4,5 nafari armanlar, qolgan milliy guruhlar 3 foizdan kamrog‘ini tashkil qiladi.

Gruziya shimol va sharqda Rossiya, janubi-sharqda Ozarbayjon, janubda Armaniston va Turkiya bilan chegaradosh. Konstitutsiyaga ko‘ra, Gruziya ikkita avtonom respublika, to‘qqizta hudud va ularga tenglashtirilgan poytaxtni o‘z ichiga oladi. Mamlakat o‘z mustaqilligini e‘lon qilgan Abxaziya va Janubiy Osetiyani aslida boshqarmaydi.

28-noyabr kunida minglab gruziyaliklar saylov natijalariga norozilik bildirishdi. Ularning fikricha, hukmron rossiyaparast “Gruziya orzusi” partiyasi an’anaviy tarzda 40 foizga yaqin qo’llab-quvvatlagandan keyin 54 foiz ko‘pchilikni da’vo qilib, muxolifatdan yevropaparast ovozlarni “o‘g‘irlagan” degan fikr bilan norozilik namoyishlari boshlangandi, hukumat mamlakatda Yevropa Ittifoqiga qo’shilish masalasi qarorini kechiktirishilishi haqidagi e’lonni ko’rib, odamlar yana ko‘chaga norozi kayfiyatda chiqishini davom ettirishdi.

29 noyabr kechasi Gruziya poytaxti Tibilisi bo‘ylab yangi tartibsizliklar to‘lqini boshlandi, Gruziya parlamenti qizil xavf darajasini e’lon qildi.

Nima uchun Gruziyada yangi norozilik namoyishlari boshlandi, hukumat ularga qanday munosabatda bo‘ldi va ular Evropa Ittifoqi bilan qanday bog’liq?

### **GRUZIYADA TARTIBSIZLIK BOSHLANISHI**

Joriy yilning 28 oktyabrdagi parlament saylovlaridan so‘ng Tbilisida boshlangan hukumatga qarshi norozilik namoyishlari 29 noyabrga o’tar kechasi avj oldi. 28 — noyabr kuni kechqurun Evropa Ittifoqi (EI) bayroqlari tushirilgandan so‘ng namoyishchilar parlament binolari oldiga to‘plana boshlaganlar.

Bundan tashqari, mamlakatning boshqa yirik shaharlarida — Kutaisi va Batumida ommaviy norozilik namoyishlar boshlandi.

#### **Hukumat harakatlari**

Gruziya ichki ishlar vazirligi norozilik namoyishlari endi tinch emasligini deyarli darhol tan oldi. Parlament binosiga politsiya va maxsus kuchlar yuborildi. Namoyishni tezlashtirish uchun suv to‘plari va ko‘zdan yosh oqizuvchi gaz ishlatilgan, ammo namoyishchilar politsiya xodimlari tomonidan qalampir qutilari va xavfli kimyoviy stimullardan foydalananligini ta’kidlashdi.

Natijada, ertalab namoyishchilar Rustaveli prospektidan quvib chiqarildi. Politsiyaga bo‘ysunmaslik va ma’muriy tartibni buzganlik uchun 43 kishi hibsga olganlar.



Politsiya 2024-yil 29-noyabrdagi Gruziya, Tbilisi, Rustaveli prospektidagi  
Gruziya parlamenti binosi oldida namoyishchilar suv o’tkazgichlari  
yordamida tarqatib yubordi  
Surʼat: Irakli Gedenidze / Reuters

#### **namoyishlari boshlandi?**

Gruziyada mamlakat hukumati 2028 yilgacha Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lish bo‘yicha muzokaralardan voz kechishi to‘g‘risidagi qarori, Bundan tashqari, hukumat kelgusi to‘rt yil davomida Evropa Ittifoqining barcha byudjet grantlaridan voz kechishi norozilik to‘lqini boshanishiga sabab bo‘lganligini ko‘rsatmoqda.

Gruziya bosh vaziri Irakli Kobaxidze Yevropa Ittifoqiga a'zolik bo'yicha muzokaralarni Bryussel tomonidan shantaj vositasi deb atadi va Tbilisi Yevropa integratsiyasini rahm-shafqat sifatida ko'rishni istamasligini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, Gruziya Evropa Ittifoqi bilan teng huquqli muzokaralar uchun iqtisodiy asoslarni tayyorlashi kerakligini takidlab u shunday degan

*(Biz Yevropa Ittifoqiga bir oyoqda turib tilanchilik bilan emas, balki yaxshi demokratik tizim va kuchli iqtisodiyotga ega Yevropa Ittifoqiga munosib qo'shilish bilan kirmoqchimiz)*

Gruziyada hukumatga qarshi mitinglar 26 oktyabrda bo'lib o'tgan parlament saylovlardan so'ng boshlandi. Hukmron partiya parlamentdagi mutlaq ko'pchilikni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi, ammo muxolifat ovoz berish natijalarini soxta deb hisoblab, tan olishdan bosh tortdi.

Natijada Gruziya parlamenti muxolifat partiyalari ishtirokisiz ish boshladi hozirda unda faqat hukmron "Gruziya orzusi — demokratik Gruziya" vakillari o'trimoqda. 28 noyabrda Kobaxidze yana mamlakat bosh vaziri etib tayinlandi, ammo muxolifat siyosatchilari uning noqonuniyligini talab qilishda davom etmoqdalar.

### Namoyishlarni kim uyuştirdi?

Namoyishlarga Gruziya muxolifat partiyalari Saakashvili tomonidan tashkil etilgan "yagona milliy narakat" bosnchilik qildi. Ular Tbilisining evrointegratsiya kursini qo'llab-quvvatlaydilar va hukumatni milliy manfaatlarga xiyonat qilishda ayblaydilar. Muxolifat gruzinlarning katta qismi (deyarli 90 foiz) Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lismi tarafdori bo'lgan so'rov larga ishora qilmoqda.

Bundan tashqari, Gruziya prezidenti Salome Zurabishvili noroziliklarga qo'shilganligi ma'lum bo'ldi. U hukumatning harakatlarini konstitutsiyaviy to'ntarish deb atadi va Evropa Ittifoqi davlatlarini Tbilisida sodir bo'layotgan voqealarga munosabat bildirishga chaqirdi.

### XULOSA QILIB AYTGADA

Hukumatning "Xorijiy ta'sirning shaffofligi" haqidagi qonunini qabul qilishi va LGBT targ'ibotini taqiqlashi, shuningdek, Yevropa Ittifoqi bilan integratsiya jarayonining to'xtatilishi asosiy sabab bo'ldi. Qonunga ko'ra, moliyaviy mablag'larining 20% yoki undan ortig'ini chet eldan oladigan tashkilotlar "chet el agentlari" sifatida ro'yxatdan o'tishi kerak. Bu esa Yevropa va AQSh tomonidan tanqidga uchradi, chunki u demokratiya va fuqarolik jamiyatini cheklash deb baholandi.



Evropa Ittifoqi bayrog'i bilan namoyish ishtirokchilari va hukumatga qarshi norozilik namoyishlari paytida politsiya, Tbilisi, Gruziya, 2024 yil 28-noyabr

Surat: Irakli Gedenidze / Reuters



2024-yil 28-noyabrdagi Gruziya, Tbilisi, Rustaveli prospektidagi Gruziya parlamenti binosi oldida norozilik namoyishlari ishtirokchilari

Surat: Irakli Gedenidze / Reuter

ka'il

Namoyishlar davomida odamlar hukumatning qarorlarini mustaqil ravishda tanqid qilish uchun ko'chaga chiqdi. Ba'zi siyosiy sharhlovchilarga ko'ra, bu harakatlar rangli inqiloblar alomatlariga ega bo'lishi mumkin, chunki G'arb mamlakatlari va nodavlat tashkilotlarning ishtiroki seziladi. Ammo hukumat buni keskin rad etib, qonunning maqsadi moliyaviy shaffoflikni ta'minlash ekanini ta'kidlandi.

Bu voqealar rangli inqilob sifatida qaralishi mumkin, chunki xalqaro tanqid va ichki noroziliklar birlashmoqda. Ammo harakatning rasmiy maqsadi va yo'nalishi hozircha aniq emas, bu esa uni boshqa ijtimoiy noroziliklardan ajratishni qiyinlashtiradi.

**Adabiyotlar:** — "lenta" materialida.ru.